



**SAMARALI SOLIQ SIYOSATI TADBIRLARI IJROSI DOIRASIDA  
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH  
ISTIQBOLLARI**

***Kuziyeva Nargiza Ramazanovna,***

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Soliqlar va soliqlar tortish" kafedrasini mudiri,*

*Iqtisod fanlari doktori, professor*

*ORCID 0000-0001-8096-2928*

***Oymatova Gulnur Mirjamolovna,***

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti 2-kurs SST-5 guruh magistranti*

*E-mail: [1989gulinur1989@gmail.com](mailto:1989gulinur1989@gmail.com)*

*ORCID 0009-0005-9631-143X*

**PROSPECTS OF USING THE EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN  
THE IMPLEMENTATION OF EFFECTIVE TAX POLICY MEASURES**

***Kuziyeva Nargiza Ramazanovna,***

*Tashkent State University of Economics, Head of the "Taxes and taxation" department,*

*Doctor of Economics, Professor*

*ORCID 0000-0001-8096-2928*

***Oymatova Gulnur Mirjamolovna,***

*Tashkent State University of Economics, 2nd-year master's student of group SST-5*

*Email: [1989gulinur1989@gmail.com](mailto:1989gulinur1989@gmail.com)*

*ORCID 0009-0005-9631-143X*

***JEL Classification: O1,O23***

***Annotatsiya.*** Iqtisodiy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik butun dunyoda eng muhim masalalardan biriga aylangan bugungi davrda byudjetining katta qismini soliqlar tashkil etadigan davlatlar uchun soliq siyosati sohasida samarali tadbirlar ijrosini ta'minlash muhim amaliyotlardan biri bo'lib, buni muvaffaqiyatli amalga oshirish va ko'zda tutilmagan turli xatolar va kutilmagan oqibatlarini oldini olish maqsadida xorij tajribalarini o'rganish va ulardan ilg'or va ko'zlangan maqsadga muvofiqlarini tanlab olib amaliyotga tadbir etish soliq siyosatini muvaffaqiyatli yuritishning zaruriy shartlari qatoriga kiradi. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular allaqachon soliq islohotining ko'plab

bosqichlarini bosib o'tishgani va o'rganishimizga arziydigan katta tajriba bazasiga egaliklarini ko'rishimiz mumkin. Mazkur maqolada ham aynan milliy miqyosda soliq tizimining samaradorligini oshirish maqsadida soliq siyosatining samarali chora-tadbirlarini amalga oshirishda ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari tadqiq va tahlil qilingan, ulardan mamlakatimiz uchun eng mos va samaralilaridan namuna olish va ularni kelgusida joriy etish orqali zamonaviy milliy iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan va tavsiyalar berilgan.

***Abstract.*** Nowadays, when economic security and economic stability have become

*one of the most important issues in the world, one of the important practices is to ensure the implementation of effective tax policy measures for countries whose budgets are formed from studying their experience and selecting from it the most advanced and appropriate and their application in practice is one of the necessary conditions for the successful implementation of tax policy. If we look at the tax systems of developed countries, we can see that they have already gone through many stages of tax reform and have a large experience base that is worth learning from. In this article, in order to improve the efficiency of the tax system at the national level, the prospects for using advanced foreign experience in implementing effective tax policy measures are explored and analyzed. Suggestions and recommendations were also made for the successful development of our modern national economy by introducing the most suitable and effective experience for the development of our country.*

**Kalit soʻzlar:** samarali soliq siyosati, yashirin iqtisodiyot, soliq huquqbuzarligi, soliq jarimalari, maʼmuriy jazo, raqamli taxnologiyalar, onlayn nazorat apparatlari.

**Key words:** effective tax policy, hidden economy, tax crime, tax fines, administrative penalty, digital technologies, online control registers.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda samarali soliq siyosati davlat iqtisodiyotini boshqarishning tobora muhim vositasiga aylanib bormoqda. Soliq tizimini samarali boshqarish nafaqat davlatning moliyaviy barqarorligini taʼminlashga yordam beradi, balki iqtisodiy taraqqiyot, investitsion muhit, ijtimoiy farovonlik va mamlakatning jahon hamjamiyatidagi raqobatbardoshligini oshirishga ham katta taʼsir koʻrsatadi. Shu nuqtai nazardan soliq siyosatining samarali chora-tadbirlarini amalga oshirish boʻyicha

ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻrganish va moslashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini taʼminlashning zarur sharti hisoblanadi.

Hozirgi bosqichda samarali soliq siyosatini 2024-yilga hamda 2025-2026-yillarni rejalashtirish davriga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqish nafaqat oʻrta muddatli istiqbolda, balki uzoq muddatda ham byudjet barqarorligini taʼminlashga qodir boʻlgan samarali va barqaror soliq tizimini yaratishga qaratilishi kerak. Hozirgi vaqtda soliq siyosatining ilgari surilayotgan yoʻnalishi, afsuski, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bilan shugʻullanuvchi tashkilotlar soni va ularning ilmiy tadqiqotlari hajmini oshirishga yordam bermayapti. Iqtisodiyotning ushbu tarmogʻi uchun soliq imtiyozlarini ishlab chiqish tashkilotlarga ham ichki, ham jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi, bu esa oʻz navbatida mamlakatda iqtisodiy oʻsishning ijobiy surʼatlarini tiklash uchun sharoit yaratadi.

**Material va metod.** Oʻzbekistonda davlat samarali soliq siyosatini shakllantirish muammolari yetarlicha oʻrganilgan va zamonaviy ilmiy va maxsus adabiyotlarda taqdim etilgan. Davlat darajasida soliq siyosatini shakllantirishning nazariy jihatlarini mahalliy olimlarimiz T.Toshmurodov, T.Malikov, Q.Yahyoyev, J.Zaynalov, N.R.Kuziyeva, A.V.Vahobov, A.S.Joʻrayev, A.Yoʻldoshev, O.Olimjonov va boshqalar tomonidan chuqur oʻrganilgan boʻlsa, xorijlik olimlar J.Mirrlees, C.Fuest, K.Gründler, N.Potrafke, Fabian Ruthardt, S.B. Barulin, E.S. Vylkov, I.V. Gorskiy, E.A. Ermakov, M.V. Karp, O.S. Kirillov, V.G. Knyazev, I.A. Mayburov, T.V. Muravlev, L.P. Pavlov, V.G. Panskov, M.V. Romanovskiy, T.F. Yutkin va boshqalar

tomonidan ham ushbu sohda ulkan ishlar amalga oshirilgan.

Garchi, davlat soliq siyosati masalalariga borgan sari qiziqish ortib borayotgan bo'lsada, hali ham yetarlicha ishlab chiqilmagan, uslubiy va uslubiy xarakterga ega bo'lgan hamda davlat darajasida samarali soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirish kabi jihatlariga ta'sir ko'rsatuvchi ayrim masala va muammolar o'zining uzil-kesil yechimini topmay qolavermoqda. Xususan, iqtisodiy o'sish uchun soliqqa tortishga oid huquqbuzarliklarga o'z vaqtida chek qo'yish vositalari va mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kam yoritilgan va qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.


Maqolada bilishning umumiy ilmiy usullari, analitik va grafik tasvirlash usullari, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqotlar, dinamikada o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya kabi metodologiyalardan foydalanildi.

**Natijalar.** Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish bizning sharoitimizga muvaffaqiyatli moslasha oladigan innovatsion yondashuvlar va ilg'or tajribalarni aniqlash imkonini beradi. Bu

nafaqat soliqqa tortish amaliyotini, balki soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashish, investitsiyalarni rag'batlantirish va tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalarini ham o'z ichiga olishi mumkin.

Soliq tizimida shunday ilg'or innovatsion yondashuvlardan foydalanayotgan va ilg'or tajribalarga ega davlatlardan biri – Fransiya. Fransiya soliq tizimi garchi ko'p jihatlari bilan bizdagi soliq tizimidan tubdan farq qilsada, lekin soliq to'lovlarining undiruvchanligini oshirish va soliq to'lashdan qochish holatlarini bartaraf etishda undan tajriba o'rganishimizga arziydi.

Fransiyada soliq va yig'imlar byudjet daromadlarining taxminan 90-95% ni tashkil qiladi[13] (1-rasm). Soliq sohasidagi qonunchilikning yetarlicha markazlashgan tizimidan tashqari mahalliy hokimiyat organlariga ham nisbatan avtonomiyalar berilgan. Ular mahalliy soliqlarni, ularning stavkalarini va undirish tartiblarini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, Fransiyada soliqlarni markaziy va mahalliy byudjetlarga taqsimlashning yetarlicha aniq tizimi mavjud.



1-rasm. Fransiya davlat byudjetining tarkibi[14]

Fransiya soliq huquqbuzarliklariga nisbatan jahon fiskal amaliyotida umumiy qabul qilingan jinoiy va ma'muriy jazo choralari qo'llaydi. Bunda axloq tuzatish va tarbiyaviy chora alohida e'tiborga loyiq: aldash yo'li bilan soliq to'lashdan bo'yin tovlash to'g'risidagi ishni sud ko'rib chiqqandan so'ng, hukmni uch oy davomida ommaviy axborot vositalarida takroran e'lon qilishga ruxsat beradi, shuningdek hukmni mahkumning ish joyiga yoki yashash joyiga xabar qiladi.

Soliq ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash jarayonida kompyuterlashtirilgan texnologiyalar jadal qo'llaniladi. Soliq xizmatida hujjat aylanishini soddalashtirish va hisob-kitoblarni avtomatlashtirish bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'linma mavjud. Deklaratsiyalar maxsus kompyuter markazlarida qayta ishlanadi, ularning har biri bir necha o'nlab soliq markazlariga xizmat ko'rsatadi, shuningdek, soliq ma'lumotlari va xizmatlari almashinuvini ta'minlaydi. Masalan, agar kerak bo'lsa, ma'lum bir hisoblash markazida ish yuklamasi haddan tashqari ortib ketisa boshqa markaz deklaratsiyalarni qayta ishlashni o'z zimmasiga olishi mumkin.

Mamlakatda har yili soliq qonunchiligi mavjud vaziyat va davlat byudjeti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda aniqlashtiriladi yoki to'ldirilib boriladi.

Bunday tez-tez o'zgartirishlar, garchi oddiy soliq to'lovchilar uchun muammo tug'dirsa ham, baribir asosiy tamoyilga rioya qilish imkonini beradi: davlat byudjetining barcha xarajatlar qismi faqat daromad qismi asosida quriladi va undan oshmasligi kerak. Ushbu yondashuv o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga tezda javob berishga imkon beradi.

Soliqlarni to'lashda noinsoflik yoki xatolarni aniqlash uchun banklar, bojxona, politsiya va notariuslardan olingan

ma'lumotlar tahlil qilinishi mumkin. Bundan tashqari, hisobot davridagi hisobga olingan xarajatlar summalari asosida real daromadlarni aniqlashning bilvosita usullaridan foydalanish tizimi tashkil etilgan.

Agar buzilishlar yoki noaniqliklar aniqlansa, quyidagilar qo'llanilishi mumkin:

- ✚ jarima: qarz mavjud bo'lgan har bir oy uchun majburiyatlarning to'lanmagan summasining 0,75 foizi va agar to'lovchi deklaratsiyani kechiktirsa, e'lon qilingan summaning 10-40 foizi;
- ✚ bank hisobvaraqlaridagi mol-mulk va pul mablag'larini xatlash;
- ✚ haydovchilik guvohnomasidan 3 yilgacha mahrum qilish;
- ✚ katta miqdordagi yashirish faktlari aniqlanganda 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 250 000 yevrogacha jarima.

2019-yil 1-iyulda soliq qonunbuzarliklariga qarshi kurashish uchun soliq politsiyasi tashkil etilgan. U soliq to'lashdan bo'yin tovlash faktlarini aniqlash bo'yicha huquqiy tekshiruvlar o'tkazish va ushbu faktlar uchun aybdorlarni sudlash vakolatiga ega bo'lgan soliq agentlaridan iborat.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlagan taqdirda soliq organlari "Intérêt de retard" deb nomlangan jarimani (peniya) qo'llaydilar, uning stavkasi har oyda (2018-yil 1-yanvardan) amalda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasining 0,20 foizini tashkil etadi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash haqiqatda to'lanishi kerak bo'lganidan kamroq soliq to'lanishiga olib kelganda kechiktirilgan to'lov foizlari to'lanadi[11]. Jarimalarning miqdori soliq to'lovchining vijdonan harakat qilganligiga qarab o'zgaradi.

Shunday qilib, ushbu soliq jazosi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ✚ Agar soliq to'lovchi insofli bo'lsa va xatolik sabab bo'lgan bo'lsa, amalda to'lanishi kerak bo'lgan soliqning 10%;
- ✚ Agar soliq to'lovchi qasddan harakat qilgan bo'lsa, amalda to'lanishi kerak bo'lgan soliqning 40%;
- ✚ Agar soliq to'lovchi deklaratsiya qilinmagan ish yoki noqonuniy faoliyat bilan shug'ullansa, amalda to'lanishi kerak bo'lgan soliqning 80%.
- ✚ Tekshirishga e'tiroz bildirilgan taqdirda 100%.

Biroq soliq to'lovchilarda xsto qilish huquqi ham bor. Xato qilish huquqi - bu har bir fuqaroning o'z holatiga nisbatan qo'llaniladigan qoidani bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yish, birinchi qoidabuzarlik uchun moliyaviy jazo katta emas (2018-yil 10-avgustdagi 2018-727-sonli qonun). Bu huquq jismoniy shaxslarga ham, kompaniyalarga ham tegishli. Agar deklarant bilmasdan xatoga yo'l qo'yan bo'lsa, u o'z-o'zidan yoki ma'muriyat uni taklif qilganidan keyin talab qilingan vaqt ichida tuzatish kiritsa jazolanmaydi.

Umuman olganda, Fransiya soliq tizimida soliq huquqbuzarliklarini oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha

qat'iy va murakkab chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu chora-tadbirlarning ijrosi qattiq nazorat qilinadi.

Bizning davlatimizda ham bu borada katta ishlar olib borilmoqda, ammo hali maqtanarli natijaga erishdik deb ayta olmaymiz. "Bugungi kunda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ulushi, turli hisob-kitoblarga ko'ra, 40 foizdan 60 foizgacha o'zgarib turadi. Shunday qilib, Strategik rivojlanish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida yashirin iqtisodiyotning ulushi 48 foizdan 62 foizgacha bo'lgan. Shu bilan birga, 2023-yil oktabr oyida O'zliDep O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ulushi 40 foizni tashkil etishini ma'lum qildi. Shu bilan birga, uy-joy va transport vositalarining ikkilamchi bozori, norasmiy savdo, xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalar mamlakatda yashirin iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillari bo'ldi.

2022-yilda O'zbekistonda iqtisodiy faol aholi soni qariyb 15 million kishini tashkil etgani ham e'tiborga molik. Ularning 9 millionga yaqini norasmiy sektorda band bo'lgan. IMRI hisob-kitoblariga ko'ra, norasmiy sektordagi ish haqi rasmiy ish haqiga teng bo'lgan taqdirda, 2022-yilda davlat byudjeti soliq tushumlaridan 32,9 trillion so'm yo'qotgan"[12].

*1-jadval*

**"Karelia" MChJ korxonasi jismoniy shaxslarga to'lanadigan daromad solig'i bo'yicha soliqdan qochish holatlari**

Lavozim	Amalda	Hisobotda	Yashirilgan daromad	
			Summasi (so'm)	Foizi
<b>Direktor</b>	20 000 000,00	1 800 000,00	18 200 000,00	91,00%
<b>Bosh hisobchi</b>	15 000 000,00	1 700 000,00	13 300 000,00	88,67%
<b>Yordamchi hisobchi</b>	6 000 000,00	1 600 000,00	4 400 000,00	73,33%

<b>Menejer</b>	6 000 000,00	1 600 000,00	4 400 000,00	73,33%
<b>Xodimlar bo'limi boshlig'i</b>	10 000 000,00	1 700 000,00	8 300 000,00	83,00%
<b>Ishchi (eng kamida)</b>	3 000 000,00	1 100 000,00	1 900 000,00	63,33%

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan boshqa barcha tashkilotlarda, yoki boshqacha aytganda xususiy sektorda ishlovchi jismoniy shaxslarning daromadlari soliq deklaratsiyalarida ko'rsatilganidan ancha ko'p va asosan "konvert"da beriladi. Soliq organlariga topshiriladigan hisobotlarda esa eng kam oylik ish haqiga yaqin summa ko'rsatiladi. Masalan, shartli ravishda shtatida 100 nafar xodimi bo'lgan "Karelia" MChJ korxonasi misolida 2023-yilda amalda xodimlarga to'langan oylik ish haqi va soliq hisobotlarida ko'rsatilayotgan ish haqi miqdorini solishtirib tahlil qilamiz.

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, daromadni soliqdan yashirish darajasi kamida 60%ni tashkil qiladi. Rasman daromad manbaiga ega bo'lmagan, ishsizlar ro'yxatida turadigan va daromadi soliq idoralarida hisobdan o'tmaydigan jismoniy shaxslar ham juda ko'pchilikni tashkil qiladi.

**Munozara.** Bunday iqtisodiy huquqbuzarliklarni bartaraf etish maqsadida respublikamizda so'ngi yillarda keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son farmoni, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.09.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5837-son

farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son farmonida soliqdan qochish holatlarini minimallashtirish maqsadida Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha maxsus komissiya tuzilib, uning asosiy vazifasi etib quyidagilar belgilandi:

- + "biznesning "soyadan" chiqishini rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, soliq rejimini soddalashtirish hamda naqdsiz to'lovlarni kengaytirish choralarini ko'rish;
- + qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni shakllangan biznes yuritish amaliyotiga moslashtirish;
- + soliq va bojxona ma'muriyatchiligi vositalari hisob va tushumlarning to'liqligiga, shu jumladan soliqlardan bo'yin tovlagan jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash va javobgarlikka tortishga qaratilishini ta'minlash;
- + yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini "pulni yuvish"ga qarshi kurashish sohasidagi tashkilotlar faoliyati bilan muvofiqlashtirish;
- + ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, yashirin iqtisodiyotga

qarshi kurashishga keng jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish, jamiyatda yashirin iqtisodiyotga muhosasizlik hissini shakllantirish, legal biznes yuritishning nufuzini oshirish.”[5]

Umuman olganda soliq undiruvini to‘laqonli ta‘minlash va soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurashish borasida jiddiy chora-tadbirlar olib borilmoqda. Biroq buni yetarli deb bo‘lmaydi va bu borada hali ko‘plab ishlar amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa soliq ma‘muriyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish amaliyotini jadallashtirish va shu orqali soliq tushumlarini yig‘ish samaradorligi va shaffofligini oshirish zarur.

Soliq undiruvlari bilan bog‘liq soliq siyosati tadbirlari bo‘yicha bu borada muvaffaqiyatli natijalar ko‘rsatayotgan har qanday davlatning tajribasidan namuna olish mumkin, sababi bu tadbirlarni amalga oshirishda ichki va tashqi omillar unchalik ham katta rol o‘ynamaydi. Soliq turlari va stavkalarini o‘rnatish bo‘yicha siyosatda davlatlarning rivojlanganlik va ijtimoiy farovonlik darajasi, mamlakatdagi yashash minimumi, iqtisodiy barqarorlik omillari turli davlatlarni turlicha siyosat olib borishga majbur qilsa, soliq undiruvlari borasida bunday emas, mamlakatda to‘g‘ri, oqilona va adolatli siyosat olib borilayotgan bo‘lsa kifoya.

Xususan soliq undiruvlari tadbirlarida Fransiya va Belarus davlatlarining tajribasidan foydalanish va soliq idoralarni va xodimlarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash yashirin iqtisodiyotni muvaffaqiyatli kamaytirishga yordam beradi, soliq siyosatidagi adolatni ta‘minlaydi, davlat byudjeti tushumlarini yuqori darajaga ko‘tarib, ijtimoiy farovonlik darajasini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Taniqli iqtisodchi olimlarimizdan biri aytganidek, samarali soliq siyosati sharoitida imtiyozlarga o‘rin yo‘q. Bizneslarni “soyadan” chiqishini rag‘batlantirish uchun qanchalik keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmasin, agar to‘liq nazorat ta‘minlanmasa, bizneslar o‘ziga ko‘proq manfaatli bo‘lgan soyaga o‘tishni tanlayverishadi. Shunday ekan bu o‘rinda soliq nazoratining Fransiya tajribasini qo‘llash juda maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan:

1. Mamlakatda tovar aylanmasini to‘liq nazoratga olish uchun barcha ishlab chiqarish subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulotni soliq bazalarida hisobdan o‘tkazadigan onlayn nazorat apparatlaridan foydalanishni joriy etish va bojxona bilan ma‘lumot almashinuvni takomillashtirish lozim. Bu mamlakat hududida ishlab chiqarilayotgan yoki import bilan kirib kelayotgan har bir tovar haqida soliq idoralari boxabar bo‘lishiga yordam beradi. Natijada tovarlar aylanmasi bilan bo‘g‘liq yashirin iqtisodiyot keskin kamayadi.

2. Ayni vaqtda soliq tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning aksariyatini bilim va malakasi zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash uchun yetarli emas. Ularni malaka oshirishi ham ko‘p vaqt oladi, ham yuqori samara bermaydi. Bu borada eng maqbul yo‘l soliq sohasida bilimga chanqoq yosh kadrlarni yetishtirish va ularni taraqqiy etgan davlatlarda amaliyot o‘tashini ta‘minlash va ularni maxsus imtihonlar orqali saralab olib, tizimdagi xodimlar tarkibini shunday yosh kadrlar bilan to‘liq qayta yangilash zarur.

3. Yer va mol-mulk solig‘ining to‘lanish darajasini oshirish uchun aholi orasida soliq madaniyatini oshirish va bunda turli ijtimoiy tadbirlar o‘tkazish, ixtiyoriy va o‘z vaqtida to‘laydigan jismoniy shaxslarni rag‘batlantirish choralarni ko‘rish ushbu

turdagi soliq tushumlarini oshishiga yordam beradi va soliqlarga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi.

4. Raqamli texnologiyalar, kameralar, dronlar orqali tadbirkorlik subyektlari, yer va mulklar bo'yicha haqiqiy holatni tekshirish ham soliqdan qochish holatni kamaytiradi, hamda soliq undiruvlaridagi

inson omilining salbiy ta'sirini bartaraf etadi.

Umuman olganda, soliq qonunbuzarliklariga qarshi kurashish va soliqlarni undirish borasida Fransiya tajribasini o'rganish va bizning soliq tizimimizga muvofiqlarini qo'llash samarali soliq siyosati tadbirlari ijrosini yuqori darajaga olib chiqish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Toshkent, 2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son (<https://lex.uz/docs/4415356>)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son farmoni (<https://lex.uz/docs/-3802378>)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.09.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5837-son farmoni (<https://lex.uz/docs/-4529995>)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son farmoni (<https://lex.uz/docs/5073459>)
6. Kuzieva N.R. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. O'quv qo'llanma. T., 2005 y.
7. Kuzieva N.R. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. O'quv qo'llanma. T., 2003 y.
8. Lettre de la DAJ – Rapport public annuel 2023 de la Cour des comptes <https://www.economie.gouv.fr/daj/lettre-de-la-daj-rapport-public-annuel-2023-de-la-cour-des-comptes>
9. Quels sont les différents types d'impôts français <https://expertimpots.com/articles/impots>
10. Раменская П. Ю. Налоговая политика в системе экономической безопасности хозяйствующего субъекта / Раменская П.Ю. – [Россия и ВТО: Экономические, правовые и социальные аспекты](#). Сборник статей участников IV Международного научного студенческого конгресса. 2013 – Издательство
11. <https://rouzade.com/cf-nalogovye-pravonarusheniya-i-shtrafy-vo-francii>
12. [https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/tax\\_payment#\\_ftn](https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/tax_payment#_ftn)
13. <https://www.budget.gouv.fr/documentation/publications-de-la-direction/situation-mensuelle-du-budget-de-letat-smb>
14. <https://www.economie.gouv.fr/dgfip/la-situation-mensuelle-de-letat>